| | |
|---|---|
| | Toshkent-2008.<br>4.Расулов М., Умумий тилшунослик., “Фан ва технология” нашриёти.<br>5.Boltayev M., “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiva imlosi” Toshkent, “O‘qituvchi” -2003.<br>6.Iskandarova G., “ O‘zbek tili grammatikasi”. - Toshkent, 2009.<br>7.Миркосимова М., Алимова Ш., Зоитова О., Умарова Н. “Ўзбек тили” (техника университетининг русийзабон талабалари учун). - Тошкент: ТДТУ, 2004.<br>8.Qahhorova H.,Muhammedova S.” O‘zbek tili”.-Toshkent.Universitet,2004.<br>9.Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish”. - Toshkent, 2013. |
| | **Axborot manbalari**<br>1. http://ziyonet.uz/ru/library<br>2. translate.yandex.ru/?utm_source=slovari |
| 7 | **Namangan muhandislik – qurilish instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasining 2024-yil ____-avgustdagi ____-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8 | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>D.Shermatova- NamMQI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>M.Sobirova- Namangan davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori. |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK – QURILISH INSTITUTI**

NamMQI
O‘quv-uslubiy boshqarma
№ 687
«3» 07 2024 y.

**“TASDIQLAYMAN”**
**NamMQI rektori**
**_____ Sh.Ergashev**
**“___” ________ 2024-yil**

## O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI

## O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta’lim sohasi: | 730000 - Muhandislik ishi |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60730400 - Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji |

**Namangan-2024**

| Fan/modul kod O‘RT1104 | | O‘quv yili 2024/2025 | Semestr 4 | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Tanlov fan | | Ta'lim tili O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi | 60 | | 60 | 120 |

**2**

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarning o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarga soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish. Talabalarning o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlik darajasini oshirish.

**Fanning vazifasi** – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta'minlash; egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me'yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta'minlashdan iborat.

**II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)**

**II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.**

Yozma nutq: Davlat tili tushunchasi. O‘zbek tili va davlat qonunlari. Alifbo, imlo qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori.

Grammatika: til va tafakkur, til va ma'naviyat.

**2-mavzu. Til va yozuv masalalari.**

Yozma nutq: yozuv haqida umumiy tushuncha, o‘zbek yozuvlari tarixi, o‘ zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.

Grammatika: grafika, orfografiya.



**3-mavzu. O‘zbek tilining leksik qatlamlari.**

Yozma nutq: so‘z – leksikologiyaning o‘rganish obyekti sifatida, so‘zlardagi bir ma'nolilik va ko‘p ma'nolilik.

Grammatika: ijtimoiy leksika, sohaviy leksika.

**4-mavzu. Til va terminologiya. Terminlarning yasalishi.**

Yozma nutq: o‘zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari, tilning lug‘at tarkibi, sohaviy terminlar.

Grammatika: o‘zbek leksikografiyasi, umumiy va maxsus lug‘atlar, akademik, ommabop va o‘quv lug‘atlari, sohaviy lug‘atlarda terminlar.

**5-mavzu. Matn va uning turlari. Mikro matn va makro matn.**

Yozma nutq: ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar.

Grammatika: sohaviy terminlar.

**6-mavzu: Matn tahlili va tahriri. O‘zbekiston-yagona vatan.**

Yozma nutq:”Vatan” madhiga doir matn yozish.

Grammatika: Matnda sinonim so‘zlardan foydalanish.

**7-mavzu.Diologik va monologik matnning ma'no munosabatiga ko‘ra turlari.**

Yozma nutq: “Hayot mening tasavvurimda” mavzusida esse yozish.

Grammatika: hayotdagi maqsad va orzular haqida diologik matn tuzish va sahnalashtirish.

**8-mavzu.Ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar.**

Yozma nutq: sohaga doir ilmiy matnlar.

Grammatika: sohaviy terminlar.

**9-mavzu. Adabiy nutq va uning uslublari.**

Yozma nutq: badiiy, so‘zlashuv uslub haqida tushuncha berish.

Grammatika: publitsistik uslublar va ularning uslubiy xususiyatlari.

**10-mavzu. Nutq fazilatlari va nutqning tinglanishi. Madaniy nutq me'yorlari.**

Yozma nutq: “Sohaning bugungi taraqqiyoti” mavzusida matn tuzish.

Grammatika: taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

**11-mavzu. Nutqning kommunikativ sifatlari.**

Yozma nutq: “Kasbim-faxrim” mavzusida matn yozish.

Grammatika: jargonlar, vulgarizmlar, nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” so‘zlar.

**12-mavzu. Yozma nutq savodxonligi va nutq madaniyati asoslari.**

Yozma nutq: lotin alifbosida xat-savodxonlikni mustahkamlash.

Istalgan milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish. “Turli millatlarning urf-odatlari” mavzusida polilog tuzish va uni sahnalashtirish.

**13-mavzu. O‘zbek adabiy tili me'yorlari**

Yozma nutq;“Qurilishda kommunikatsiya tizimlari” mavzusida insho yozish.

Grammatika: mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzish.

**14-mavzu. Badiiy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**

**Yozma nutq:** kitob mutolaasi, 5 ta muhim tashabbus doirasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish.

**Grammatika**: istalgan badiiy ijod namunalari(hikoya, she'r,insho)

**15-mavzu. Ilmiy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**

Yozma nutq: ilmiy uslub va sohaviy terminlar.

Grammatika: ilmiy uslub va ularning uslubiy xususiyatlari.

**16-mavzu. Soha bo'yicha belgilangan mavzu asosida ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari.**

Yozma nutq: maqola, tezis, taqriz, annotatsiya.

Grammatika: rezyume matni talablari.

**17-mavzu. Dastlabki ilmiy tadqiqot yozish.**

Yozma nutq: ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari:

Grammatika: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats).

**18-mavzu. Rasmiy – idoraviy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**

Yozma nutq: rasmiy-idoraviy uslub tushunchasi.

Grammatika: sohaga oid hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi.

**19-mavzu.Tashkiliy hujjatlar.**

Yozma nutq: guvohnoma, ichki mehnat tartiboti qoidalari, yo'riqnoma, nizom-ustav, tashkilot tuzilmasi va shtatlar soni,Shtat jadvali.

Grammatika: ta'tillar grafigi, shartnoma, mehnat bitimi.

**20-Mavzu. Farmoyish hujjatlari.**

Yozma nutq; buyruq, buyruqdan ko'chirma.

Grammatika: ko'rsatma, farmoyish.

**21-mavzu.Ma'lumot-axborot hujjatlari.**

Yozma nutq: ariza,bayonnoma, bayonnomadan ko'chirma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma.

Grammatika: tavsifnoma, tavsiyanoma, tarjimayi hol, tilxat, tushunturish, e'lon, hisobot.

**22-mavzu. Xizmat yozishmalari.**

Yozma nutq: manzil, taklifnoma,telegramma, telefonogramma, axborot xati,da'vo xati,talabnoma, ilova xati, iltimos xati.

Grammatika: kafolat xati, so'rov xati, tasdiq xati, farmoyish xat.

**23-mavzu. Diplomatik va tijorat yozishmalari.**

Yozma nutq: diplomatik yozishmalarning turlari.

Grammatika: tijorat yozishmalari.

**24-mavzu. Sohada o'zbek tilida muloqot va kommunikatsiya jarayoni.**

Yozma nutq: muloqot va uning turlari.

Grammatika: muloqot shakllari va nutqiy faoliyat.

**25-mavzu. Kasbiy muloqot jarayoni.**

Yozma nutq: muloqot texnikasi va uning tarkibiy qismlari, grammatika: muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.

**26-mavzu. Og'zaki muloqot va uning xususiyatlari.**



Yozma nutq: verbal va noverbal muloqot.

Grammatika: yozma muloqot, muloqot texnologiyasi va texnikasi.

**27-mavzu. XXI asrda innovatsiyalar. Sohaga doir innovatsiyalar.**

Yozma nutq: "Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqd tayyorlash.

Grammatika: kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma 'lumot tayyorlash.

**28-mavzu. Soha mutaxassisining etika va estetikasi.**

Yozma nutq: Muhandislik kommunikatsiyasi sohasining yetuk vakillari haqida.

Grammatika: Imom Ismoil al-Buxoriy hadislaridan o'rganish.

**29-mavzu. Ilm maskanimiz hayotidan.**

Yozma nutq: NamMQI haqida taqdimot tayyorlash.

Grammatika: soha mutaxassislari haqida ma'lumot tayyorlash.

**30-mavzu: Iqtidor va mehnat.**

Yozma nutq: "Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?" mavzusida esse yozish, mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lumot yozish, kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to'g'risida dialog tuzish va uni sahnalashtirish.

Grammatika: mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnga munosabat bildirib so'zlash,mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarning qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar uchun tanlangan mavzularda O'zbek tili fanini o'rganish, talabalarni davlat tiliga bo'lgan munosabatlarini mustahkamlash, mamlakatimizda o'zbek tili va uni rivojlantirishga doir olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash, tanlagan ta'lim yo'nalishlarining tarixi, buguni va istiqbolli kelajagiga oid bilimlarni boyitish, kasbga doir matn tuzish, og'zaki so'zlab berish va yozish, ushbu sohaning yetuk mutaxassislari faoliyati bilan tanishish, kelajakda kasb orqali yurt istiqboliga munosib hissa qo'shish, ma'naviy-ma'rifiy yuksalish, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlash ko'zda tutilgan.

1.O'zbek tili-Davlat tili.
2. Til-qadriyat va millat iftixori.
3. Davlat tiliga doir islohotlar va ularning amalga oshirilishi.
4. Tilga e'tibor-elga e'tibor.
5. Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tilining asoschisi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti 75-sessiyasidagi so'zlagan o'zbek tilidagi nutqi.
7. Namangan muhandislik-qurilish institutida men tanlagan ta'lim yo'nalishi

| | |
|---|---|
| | tarixi, buguni va uning istiqbolli kelajagi.<br>8. NamMQlda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislari faoliyati bilan yaqindan tanishish.Ilmiy izlanishlar sari yo'l.<br>9. Muhandislik kommunikatsiyalari sohasi mutaxassisining kasb etika va estetikasi.Nutq odobi va kasbiy muloqot jarayonlari.<br>10.Yangi O'zbekiston-Yangicha dunyoqarash. Muhandislik kommunikatsiyalari sohasining eng so'nggi yutuqlari, islohotlarning amalga oshirilishi.<br>Talaba ushbu mustaqil ta'lim mavzularini o'rganib chiqadi. Egallagan bilimlarini umumlashtiradi. Ixtiyoriy tarzda yuqorida tavsiya etilgan mavzulardan biriga: insho (lotin yozuvida), maqola, taqdimot yoki videorolik shaklida ijodiy ish tayyorlaydi. |
| 3 | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>- o'zbek tili - davlat tili, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va ahamiyatini, mavqeyini, uning rivojlanish nazariyalarini tushunishi;<br>- adabiy tilning me'yorlari bilan tanishishi;<br>- davlat tiliga doir islohotlarni o'rganishi;<br>- o'zbek tilning nutq uslublari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;<br>- nutqi (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish)ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |
| 4 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• dialog, monolog, debat;<br>• tanishuv o'qish, ko'z yugurtirib o'qish va sinchiklab o'qish;<br>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;<br>• mantiqiy fikrlashga qaratish;<br>• guruhlar bilan ishlash;<br>• taqdimot qilish;<br>• "Blum taksonomiyasi", "Kvest" texnologiyasi. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Talabalar bilimini baholash semestr va yakuniy nazorat davomida o'qitish materiallarini o'zlashtirish ko'rsatkichi (test va topshiriqlar natijasi)ga asoslanadi.O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanidan bilimlarni egallash davomida talabalar 100 ballik tizim asosida, ya'ni 50% ball oraliq nazorat uchun, 50% ball esa yakuniy nazorat uchun to'playdilar. Oraliq nazorat ballarning umumiy natijasi 30 balldan past bo'lgan talabalar yakuniy nazorat imtihoniga kiritilmaydi.Talabalar bilimi natijalari besh baholik tizimda baholanadi.<br>Institut talabalari (keyingi o'rinlarda talabalar deb ataladi) bilimini |



| | |
|---|---|
| | nazorat qilish va baholashning maqsadi shuki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, oliy ta'lim tizimida ilg'or texnologiyalarni qo'llash, yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot markazlari bilan muhim yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan soha mutaxassislarini tayyorlash hamda talabalarda mustaqil ta'lim olish, shuningdek, institutni jahonning nufuzli institutlari reytingiga kirishini ta'minlashdan iborat.<br>Talabalar institut professor-o'qituvchilari tomonidan birinchi mashg'ulotlarda ta'lim platformasi orqali va dars jadvali asosida olib borilgan o'quv mashg'ulotlari baholash talablari bilan tanishtirilishlari shart.<br>Kreditlar dasturda belgilangan ta'lim natijalarini aks ettirgan holdagina o'zlashtiriladi. Agar ta'lim oluvchi belgilangan natijalarga erisha olmasa, kreditlar o'zlashtirilmaydi. Ta'lim natijalarini aks ettirgan talabaning o'zlashtirilgan kreditlari miqdori dastur elementiga berilgan kreditlar miqdoriga teng. Talaba baholash mezoniga muvofiq, fanning o'quv dasturi mazmunini o'zlashtirgan taqdirda, u tegishli fan bo'yicha kreditlarning zarur sonini to'plagan deb hisoblanadi. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.IrisqulovM.T., " Tilshunoslikka kirish". "Yangi avlod", 2009- yil.<br>2.Mirzayev I. Boltayev M. "O'zbek tili",Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti-2004.<br>3.Xusanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N., "O'zbek tili"o'quv qo'llanma,Toshkent-2016.<br>4.Turdiyeva K., Ahmedova D., "O'zbek tili", "Musiqa" nashriyoti Toshkent-2007.<br>5.Mahmudova Z.,Usmonova G.,Rus guruhlari uchun "O'zbek tili", (o'quv qo'llanma) Toshkent-2002.<br>6.Sayfullayeva R., Mengliyev B.,Boqiyeva G., Qurbonova M., Z.,Abulazova M.,Toshkent-2009.<br>7.(Aminov A)., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y., "Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanma", O'zbekiston nashriyoti",Toshkent-2020.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.Нурмонов А., "Ўзбек тилшунослиги тарихи", Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2002.<br>2.Rahmonov N., Sodiqov Q., "O'zbek tili tarixi", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent-2009 .<br>3.Abdurahmonov A., Shukurov Sh.,Mahmudov Q., "Ozbek tilining tarixiy grammatikasi", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, |